



Duduqlanuvchi bolalar bilan ishlash bo'yicha uslubiy tavsiyalar

Isodullayeva Iqboloy Sodiqjonovna –

Farg'ona davlat universiteti

“Inklyuziv” ta’lim kafedrası o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: iqboloy006@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-9923-0328>

Abdulahatova O'g'iloy Baxtiyorjon qizi –

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada duduqlanish, ya'ni nutqning buzilishi bo'g'inlar yoki tovushlarning to'xtab qolishi, takrorlanishi va ritmiy noaniqliklar bilan namoyon bo'ladigan holat sifatida tahlil qilinadi. Maqolada duduqlanishning kelib chiqish sabablari, klinik alomatlari, psixologik va ijtimoiy asoratlari hamda bolalarning nutq rivojlanishiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, duduqlanishni bartaraf etish, oldini olish va nutqni normallashtirish bo'yicha amaliy metod va korreksion usullar, shu jumladan logopedik mashg'ulotlar, interfaol mashqlar va ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish tavsiyalari taqdim etilgan. Tadqiqot natijalari pedagoglar, logopedlar va maxsus ta'lim mutaxassislari uchun duduqlanish bilan og'riq bolalar bilan ishlashda ilmiy-amaliy yo'riqnoma vazifasini bajaradi.

Kalit so'zlar: logomashq, tutilish, etiologiya, anatomik-fiziologik, asfiksiya, klonik, tonik, fonetik-fonematik, leksik-grammatik.

Методические рекомендации по работе с детьми, страдающими заиканием

Аннотация. В данной статье анализируется заикание, то есть нарушение речи, проявляющееся остановкой, повторением слогов или звуков и ритмическими нарушениями. Рассматриваются причины возникновения заикания, его клинические симптомы, психологические и социальные последствия, а также влияние на речевое развитие детей. Кроме того, представлены практические методы и коррекционные подходы для устранения и профилактики заикания, а также нормализации речи, включая логопедические занятия, интерактивные упражнения и эффективное взаимодействие с родителями. Результаты исследования служат научно-практическим руководством для педагогов, логопедов и специалистов по специальному образованию при работе с детьми, страдающими заиканием.

Ключевые слова: логопедическое упражнение, заикание, этиология, анатомо-физиологический, асфиксия, клонический, тонический, фонетико-фонематический, лексико-грамматический.

Methodical recommendations for working with children who stutter

Annotation. This article analyzes stuttering, a speech disorder manifested by the stopping or repetition of syllables or sounds and rhythmic irregularities. The causes of stuttering, its clinical symptoms, psychological and social consequences, and its impact on children's speech development are examined. Additionally, practical methods and corrective approaches for eliminating and preventing stuttering, as well as normalizing speech, are presented, including speech therapy sessions, interactive exercises, and effective cooperation with parents. The results of the study serve as a scientific and practical guide for educators, speech therapists, and special education specialists working with children who stutter.

Keywords: logotherapy, seizure, etiology, anatomical-physiological, asphyxia, clonic, tonic, phonetic-phonemic, lexico-grammatical.

KIRISH

Yosh avlodni zamon talabi asosida har tomonlama shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan va jamiyat ishlarida faol qatnashadigan shaxs sifatida tarbiyalashda nutqning to'g'ri rivojlanishi muhim o'rin tutadi. Nutq nafaqat kishilararo aloqa vositasi, balki milliy boylik, madaniyat ramzi hamda tarbiya, maorif va ijodiyotning qudratli vositasidir. Shuning uchun bolaning shaxsiy rivojlanishi, uning ijtimoiy ko'nikmalari va intellektual salohiyatini oshirishda nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, bola shaxsining zamon talabiga javob beradigan darajada yetukligi, uning fikrlash va o'zini ifoda etish qobiliyatining shakllanishi nutqning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Nutq oliy psixik jarayon bo'lib, u nafaqat o'qish, yozish va muloqot sohalarida, balki ijodiy faoliyat va kasbiy ko'nikmalarda ham qudratli muomala vositasi hisoblanadi. Shu bois, har bir inson nutqni puxta egallashga, fikrini aniq va to'liq ifoda etishga intilishi lozim.

Bola nutqni o'rganishda kattalarga taqlid qilish orqali tovushlar, so'zlar va jummalarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadi. Shu jarayon bolaning nafaqat so'z boyligini, balki tafakkur doirasini kengaytirishga, eslash va tinglash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ko'pchilik bolalar vaqt o'tishi bilan aniq va to'g'ri nutqga ega bo'ladilar, ammo ayrim hollarda nutq buzilishlari, jumladan duduqlanish kabi muammolar uchrab turadi. Shu sababli, bolaning nutqini to'g'ri rivojlantirishga qaratilgan muntazam pedagogik va logopedik ishlar zarurdir. Nutq rivoji nafaqat akademik muvaffaqiyat, balki ijtimoiy muhitga moslashish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va shaxsiy ishonchni shakllantirishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, yosh avlodning har tomonlama yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishi, uning jamiyatdagi faol ishtiroki va ijodiy salohiyati nutqning to'g'ri rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Duduqlanish – bu nutq apparati muskullarining notog'ri ishlashi natijasida nutqning sur'at va ohangining buzilishi bilan namoyon bo'ladigan holatdir. Nutq buzilishlari haqidagi ilmiy ta'limotlar tarixida duduqlanish eng qadimiy va keng o'rganilgan nutq muammolaridan biri hisoblanadi. Uning mohiyati turli davrlarda va turli mualliflar tomonidan turlicha talqin qilingan, bu esa fanning rivojlanishi va tadqiqotchilarning ushbu nutq buzilishlariga yondashuvi bilan bog'liq.

Qadimgi davrlarda duduqlanish ko'proq bosh miya faoliyatidagi muammolar yoki artikulyatsion apparat qismlari o'rtasidagi nomutanosiblik bilan izohlangan. Masalan, Gippokrat bosh miya ichida namlik to'planib qolishini duduqlanishning sababi sifatida ko'rgan bo'lsa, Aristotel esa nutq apparati elementlarining o'zaro noto'g'ri munosabati bilan bog'ladi. Keyingi davrlarda Galen, Sels va Ibn Sino duduqlanish paytida nutq apparatining markaziy yoki periferik (sirtki) bo'limlarida buzilishlar yuz berishi mumkinligini qayd etishgan. Zamonaviy tadqiqotlar esa duduqlanuvchi kishilarda turli vegetativ o'zgarishlar kuzatilishini ko'rsatadi. Masalan, M.Zeemanning hisob-kitoblariga ko'ra, duduqlanuvchi shaxslarning taxminan 84 foizida vegetativ distoniya – ya'ni asabiy va ichki organlar faoliyatidagi o'zgarishlar – uchrashi mumkin. Bu duduqlanishning nafaqat nutq apparati bilan, balki butun organizmning psixofiziologik holati bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Shu tariqa, duduqlanishni tushunish va unga samarali yondashish nafaqat nutq mashqlarini, balki bolaning umumiy psixofiziologik holatini ham hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Bu yondashuv duduqlanuvchi bolalarning nutqini to'g'ri rivojlantirish va ularni ijtimoiy muhitga faol qo'shilishiga yordam beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Nutq apparati muskullarining tortishish natijasida nutqning sur'at – ohangining buzilishi duduqlanishdir, uning paydo bo'lishida bosh miya qobig'idagi nerv jarayonlarining buzilgan (ularning kuchi va xarakatchanligining ortishi) o'zaro munosabatlari muhim rol

o'ynaydi. Katta yarim sharlar qobig'i faoliyatidagi nerv buzilishi, bir tomondan, nerv sistemasining holati, uning me'yordan chetlashishiga tayyorligi bilan bog'langan bo'lishi mumkin.

Duduqlanish sabablari: hozirgi vaqtda duduqlanish sabablari ikki guruhga: moyillik sababi va keltirib chiqaruvchi sababga ajratish mumkin. Bunda ayrim etiologik omillar duduqlanishni rivojlantirishi va uni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Moyillik sabablariga quyidagilar kiradi:

- ota-onalarning nevropatik kasallanishi (markaziy nerv sistemasining faoliyatini bo'shashtiruvchi yoki izdan chiqaruvchi nerv kasalliklari, yuqumli va jismoniy kasalliklar);

- duduqlanuvchining o'zidagi nevropatik xususiyatlar (tungi qo'rquv, enurez, kuchli qo'zg'aluvchanlik, his-xayajonli zo'riqish);

- nasliy buzilish (duduqlanish nutq apparatining tug'ma zaifligi asosida rivojlanadi, u avloddan -avlodga ressesiv alomat tarzida o'tib borishi mumkin). Agar tashqi muhit duduqlanishga salbiy ta'sir ko'rsatsa, ekzogen omillarning ta'sirini e'tiborga olish lozim.

- bosh miyaning turli davrlardagi rivojlanishida, ko'plab salbiy omillar ta'sirida shikastlanishi: ona qornidagi va tug'ma jarohatlanish, asfiksiya; postnatal yuqumli kasalliklar, turli xil bolalar kasalliklaridagi jarohatli va trofik- almashinuv buzilishlar. Keltirib chiqaruvchi sabablar guruhida anatomik-fiziologik, ruhiy va ijtimoiy sabablarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Anatomik-fiziologik sabablar: ensefalitik oqibatlari bo'lgan jismoniy kasalliklar; jarohatlar-ona qornidagi, tug'ilish paytidagi, ko'pincha asfiksiya bilan, miyaning chayqalib lat yeyishi; miyaning organik buzilishi, bu paytda harakatni muvofiqlashtiruvchi qobiq osti mexanizmlari yallig'lanishi mumkin.

Ruhiy va ijtimoiy sabablari: qisqa muddatli – bir lahzalik –ruhiy shikast (qo'rquv, vahimaga tushish); uzoq vaqt ta'sir ko'rsatadigan ruhiy shikast, bunda quyidagi holda ko'rinadigan noto'g'ri oila tarbiyasi tushuniladi: tantiqlik, buyruqqa asoslangan tarbiya, bir xil bo'lmagan tarbiya; surunkali ziddiyatli kechinmalar, ruhiy zo'riqish, uzoq muddatli salbiy hissiyotlar.

Duduqlanish alomatlari: nutq akti jarayonidagi muskul tortishishi duduqlanishning asosiy tashqi alomatlari sanaladi. Aslida muskul tortishi 3 xil bo'ladi: klonik, tonik, aralash. Klonik muskul tortishishi vaqtida tovush bo'g'in yoki so'z bir necha marotaba takrorlanadi (o-o-o-lma, pa-pa-pa-parta, non-non-non). Tonik muskul tortishish vaqtida esa, so'z boshida to'xtalish ro'y beradi va tutilib gapiruvchi bir tovushdan, bo'g'indan va so'zdan ikkinchi tovushga, bo'g'inga va so'zga o'ta olmaydi, uzoq to'xtalib qoladi(...ol...ma, p...arta, ...n...on). Uchinchi turi aralash–klono-tonik yoki tono-klonik muskul tortishishi kuzatiladi. Odatda, bunday tortishishlar bilan barcha nafas– tovush – artikulyatsion apparat izdan chiqadi, zero uning harakati butun ishlayotgan markaziy nerv sistemasi orqali boshqariladi va nutq jarayonida ajralmagan bir butun a'zo sifatida ishlaydi. Mavjud pay tortishishining ustunligiga qarab nutqning u yoki bu organlari: nafas olish, ovoz paychalarida va artikulyatsion apparatida joylashadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Natijalari shuni ko'rsatadiki, duduqlanuvchi bolalarning hayajonli nutqida fonetik-fonematik va leksik-grammatik buzilishlar aniq namoyon bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda fonetik-fonematik buzilishlar 60,7% ni tashkil etsa, kichik yoshli maktab o'quvchilarida bu ko'rsatkich 43,1%, o'rta yoshlilarda 14,9%, yuqori sinf o'quvchilarida esa 13,1% ni tashkil qiladi. Ushbu ma'lumotlar duduqlanishning yoshga bog'liq darajada kamayishini, ya'ni bolaning nutq rivojlanishi davomida ba'zi muammolarining yengillashishini ko'rsatadi.

Duduqlanuvchi bolalarni davolashda dori-darmonlar markaziy va vegetativ asab sistemasining faoliyatini normallashtirishga, tortishishlarni kamaytirishga va umumiy tana faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, logopedik, didaktik va korreksion

mashg'ulotlar bolaning yoshi, nozologik holati, individual rivojlanish xususiyatlari va shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Yakka tartibdagi logopedik mashg'ulotlar davomiyligi va yo'nalishi, shuningdek, so'zlashish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda belgilanadi.

Duduqlanuvchi bolalar bilan ishlashda logopedik ritmika mashqlari samarali vosita sifatida qo'llaniladi. Ular quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi: yuz imo-ishoralari orqali motor va ekspressiv ko'nikmalarni rivojlantirish; diqqat, xotira va ko'rish sezgisini mustahkamlash; fazoda mo'ljal olish va ritm hissini shakllantirish; taqlidchanlik va irodaviy sifatlarni rivojlantirish uchun ijodiy, harakatli va syujetli-rolli o'yinlar; nutq tuzilishini rivojlantirish maqsadida musiqa va qo'shiqli o'yinlar, drammalashtirilgan sahna mashqlari, kulgu kechalari va imo-ishorali tomoshalar.

Logopedik mashqlar bilan bir qatorda, nutqni mustaqil rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalar muhim hisoblanadi: sekin va tinch gapirish, har bir bo'g'in va so'zni ketma-ket talaffuz qilish; gapirishdan oldin chuqur va nazoratli nafas olish; unli tovushlarni aniqlik bilan talaffuz qilish va undosh tovushlarga ortiqcha urg'u bermaslik; gapdagi birinchi unlilarni cho'zib talaffuz qilish; gapirish davomida tinch, barqaror holatda bo'lish. Shuningdek, duduqlanuvchi bolalarning nutqini rivojlantirishda logopedlar, tarbiyachilar va ota-onalar bilan doimiy individual yondashuv muhimdir. Bu jarayonda bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi, nutqiy faoliyati va ijtimoiy ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan metodik tadbirlar qo'llanilishi zarur. Har bir bola uchun mos metodlarni tanlash esa mutaxassislar bilan maslahatlashgan holda amalga oshiriladi, bu esa logopedik jarayonning samaradorligini oshiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, duduqlanadigan bolalar uchun nutqni rivojlantirishning turli usullari mavjud, ular nutq terapiyasi va xulq-atvor yondashuvlaridan tortib, elektron qurilmalar va ongni saqlash texnikasigacha. Ushbu usullarning kombinatsiyasidan foydalanish va ota-onalarni jarayonga jalb qilish orqali duduqlangan bolalar nutqining ravonligini, o'ziga ishonchini va muloqot qilish ko'nikmalarini oshirishi mumkin. Kerakli yordam va yo'l-yo'riq bilan duduqlanadigan bolalar o'zlarining nutqlarini boshqarishni o'rganishlari va o'ziga ishongan muloqotchilarga aylanishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. L.Neyman, M.Bogomiliskiy Anatomiya, fiziologiya va patologiya. Moskva: 2001.
2. L.S.Volkoviy, (pod red.) Logopediya. Moskva: –2002.
3. L.Mo'minova, M.Ayupova Logopediya. Toshkent: –1993.
4. I.S.Isodullayeva, Logorhythmics in the System of Corrective Work for Young Preschool Children with Cerebral Palsy (CP). Best Journal of Innovation in Science Research and Development, Vol. 4, Issue 4, 2025, pp. 13-17.
5. U.Mahkamova, Duduqlanuvchi bolalar nutqini rivojlantirishda logopedik texnologiyalarning o'rni. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 3(6), –2025.
6. K.Abdurashidova, Nutq buzilishlari tasnifi. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 16, –2025.
7. M.Qosimova, Duduqlanish va uni bartaraf etish usullari. "Maktabgacha ta'lim tarakkiyoti, muammo yechim va istiqbol" anjuman materiallari, –2025.
8. O.X.Esonboyeva, Duduqlanuvchilarda korreksion ishlarda logoritmikadan foydalanish. Scientific Journal of Education, –2025.
9. Z.D.Choriyeva, Duduqlanuvchi bolalarda nutqni tiklashda ko'p tarmoqli yondashuv. Fan, innovatsiya va texnologiyalar rivojlanishining dolzarb muammolari va yechimlari, –2025.